



COGNITIVE METHODS IN EPISTEMOLOGICAL RESEARCH OF MODERN UZBEK PHILOSOPHY

Laylo Ikromova

Master's student

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: modern Uzbek philosophy, epistemological research, theory of knowledge, forms of scientific cognition, epistemological approach, dialectical, empirical, theoretical, and hermeneutical methods of cognition.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

Abstract: This article explores modern Uzbek philosophy, its epistemological research, theories of knowledge, scientific methods of cognition, and their forms. The cognitive process and its various forms are examined from an epistemological perspective. Furthermore, the extent to which methods such as dialectical, empirical, theoretical, and hermeneutical approaches are applied in Uzbek philosophical thought is analyzed.

ZAMONAVIY O'ZBEK FALSAFASI GNOSEOLOGIK TADQIQOTLARIDA BILISH METODLARI

Laylo Ikromova

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: zamonaviy o'zbek falsafasi, gnoseologik tadqiqotlar, bilish nazariyasi, ilmiy bilish shakllari, epistemologik yondashuv, bilishning dialektik, empirik, nazariy va germeneytik metodlari.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy o'zbek falsafasi, undagi gnoseologik tadqiqotlar, bilish nazariyasi, ilmiy bilish metodlari va uning shakllari yoritib berilgan. Shuningdek, bilish jarayoni va shakllari gnoseologik jihatdan ko'rib chiqilib, dialektik, empirik, nazariy, germeneytik va shu kabi metodlar o'zbek falsafiy tafakkurida qay darajada qo'llanilayotgani tahlil qilingan.

МЕТОДЫ ПОЗНАНИЯ В ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Лайло Икромов

Магистрантка

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: современная узбекская философия, гносеологические исследования, теория познания, формы научного познания, эпистемологический подход, диалектические, эмпирические, теоретические и герменевтические методы познания.	Аннотация: В статье рассматривается современная узбекская философия, её гносеологические исследования, теория познания, научные методы познания и их формы. Процесс и формы познания проанализированы с гносеологической точки зрения. Также проводится анализ степени применения таких методов, как диалектический, эмпирический, теоретический, герменевтический и других в узбекской философской мысли.
--	--

Kirish. Bugungi ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti davrida ilmiy bilish metodlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki fan taraqqiyotini ushbu metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Falsafiy tafakkurning gnoseologik asoslari har qanday jamiyatning ongini shakllantirishga qaratilgan. Bilish jarayoning ilmiy, texnologik, axloqiy va ijtimoiy rivojida o'rnini anglab yetgan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 20-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasida mamlakat taraqqiyotining zaminini ilm-fan va innovatsiyalar tashkil qilishini aytib o'tadilar [1]. Shuningdek, hozirgi murakkab dinamik rivojlanuvchi dunyoda ijtimoiy yangilanish, umuminsoniy va global muammolarni yaxlit egallash imkoniyatiga ega bo'lgan yangi tafakkurning qaror topishi uchun falsafiy bilishning ro'li ortib bormoqda [2.3].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zamonaviy o'zbek falsafiy tafakkurida, jumladan, fan, falsafa, fenomenologiya, postpozitivizm kabi turli xil yo'nalishlarda metod muammosi katta o'rin egallaydi. Metod tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, subyektни aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi [3.237]. Shu bois, bugungi kundagi gnoseologik tadqiqotlarda ilmiy bilish metodlarini o'rganish o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Tadqiqot mavzusini yoritish uchun 2005-yilda nashr etilgan Q.Nazarovning "Bilish falsafasi" [4] va 2011-yilda chop etilgan N.Shermuhammedovanning "Gnoseologiya – bilish nazariyasi" [5] asarlaridan keng foydalanildi. Shuningdek, 2023-yilda X.Abdullayevaning "Ilmiy

bilish imkoniyatlarining falsafiy tahlili” [6], 2023-yilda U.Nurmatovanning “Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlar”[7], 2024-yilda M.Tajibayevning “Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari” [8], 2017-yilda G.Ibragimovanning “Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish” [9], 2024-yilda F.Kuchimovanning “Ta’lim tizimida yoshlarda proyektiv tafakkur tarzini shakllantirishning onto-gnoseologik masalalari” [10] hamda 2021-yilda D.Ismoilovning “Ilmiy va o‘quv bilish metodlari asosida fizika o‘qitishni takomillashtirish” [11] kabi PhD dissertatsiya avtoreferatlari tadqiqotimiz uchun asosiy manbalar hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur maqola mavzusini yoritish uchun bir nechta tadqiqot metodlaridan foydalandik:

Analiz metodi orqali falsafiy tushunchalar mantiqiy ravishda tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganildi.

Komparativistik metodi bilan bilish metodlarining shakllari bir-biri bilan taqqoslab tahlil qilindi.

Mantiqiy metodi orqali bilish metodlari orasidagi mantiqiy bog‘lanishlar o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Har qanday ilmiy tadqiqot jarayoni tarixdan mavjud bo‘lgan metodlar asosida shakllanadi. Tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qila oladi. Zamonaviy o‘zbek gnoseologiyasida ilmiy bilish metodlarini tahlil qilar ekanmiz, avvalambor metodlar tasnifiga to‘xtalishimiz zarur. Quyidagi metodlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib, fan taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Empirik tadqiqot metodlari: kuzatish, tavsiflash, taqqoslash, o‘lchash, eksperiment.
2. Nazariy bilim metodlari: formallashtirish, mavhumlikdan konkretlikka o‘tish, gipotetik, aksiomatik.
3. Umummantiqiy metodlar: analiz, induksiya, deduksiya, analogiya, ehtimoliy-statistik metodlar, mavhumlashtirish, modellashtirish va shu kabilar.
4. Falsafa metodlari: dialektika, metafizika, sinergetika, sofistika, eklektika.
5. Fan metodlari ma’lum bir fan tarmog‘iga tegishli bo‘ladi.

Shuningdek, hozirgi zamon metodologiyasida kumatoid, case-study, abduksiya, evristika kabi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda bir nechta tadqiqotchilar ilmiy bilish metodlari yuzasidan o‘z ishlarini olib bormoqda. Tadqiqotchi X.Abdullayeva “Ilmiy bilish imkoniyatlarining falsafiy tahlili” (2023) deb nomlangan dissertatsiya avtoreferatida Sharq va G‘arb mutafakkirlarning metodlarini tahlil qiladi. Masalan, Poppening fikricha, ilmiylik tajribada

rad etish bilan bog'liq, lekin tadqiqotchi M. Sherboboyev fikricha, K.Popperning falsifikatsiya metodi bilimlarni haqiqatga da'vogar bo'lishdan qaytaradi va kelajakda yangi bilimlarning hosil bo'lishiga imkon yaratadi [12.15]. Zero, tadqiqotchimiz X.Abdullayeva nafaqat o'tgan asr, balki bugungi kundagi o'zbek olimlarining fikrlarini inobatga olgan.

PhD U.Nurmatova "Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlari" (2023) deb nomlangan tadqiqotida kitob metodikasining gnoseologik va ontologik jihatlarini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, gnoseologik konsepsiya nuqtai nazaridan, kitob mutolaasi insonni intensiv bilishga, o'z-o'zini takomillashtirishga, ilmiy bilishga, yuksak kamolotga chorlaydi hamda ma'lumotlar manbai sifatida ong-u shuurimizni quvvatlantirish manbayi hisoblanadi [13.19].

Bugungi kunda murakkab tizimlarning o'z-o'zini tartibga solishida muhim ro'l o'ynaydigan sinergetika haqida ilmiy ish olib borgan M.Tajibayev "Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari" (2024) tadqiqotida ushbu metodologiyaning tarkibiga kiruvchi o'z-o'zini tashkillashtirish hodisasini fundamental asosini tadqiq etdi. Uning fikricha, sinergetika evolyusiyaning umumiy qonuniyatlari o'rganib, shu ma'noda u umumfalsafiy metodologiya hisoblanib, sinergetik tamoyillar dialektik tamoyillarning qo'llanilish doirasini kengaytiradi va uning o'zi metafizik va dialektik metodologiya tamoyillariga ham tayanadi [14.22].

G.Ibragimova "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish" (2017) deb nomlangan dissertatsiya avtoreferatida ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish hamda o'qitish metodlari o'z ichiga aqliy hujum, muammoli bayon, POPS formula, blits so'rov, Suqrot dialogi va shu kabilarni qamrab olishini bayon qilgan.

Tadqiqotchi D.Ismoilov "Ilmiy va o'quv bilish metodlari asosida fizika o'qitishni takomillashtirish" (2021) PhD dissertatsiya avtoreferatida o'qish orqali bilish jarayonini yagonalikdan umumiylikka, ulardan esa chegaraviy umumiylikkacha bo'lgan harakati, deb ta'riflaydi. O'qish orqali bilish jarayonini mantiqiy zanjir shaklida tasavvur qilish mumkin: empirik bilish, nazariy bilish. Bilishning nazariy metodlari umummantiqiy metodlarni hamda xususiy nazariy metodlarni o'z ichiga oladi, masalan, gipotetik-deduktiv metod, hayoliy eksperiment metodi va boshqalar [15.14].

PhD F.Kuchimova "Ta'lim tizimida yoshlarda proyektiv tafakkur tarzini shakllantirishning onto-gnoseologik masalalari" (2024) dissertatsiya avtoreferatida proyektiv tafakkur tarzida konstruktiv xarakterdagi innovatsion loyihalar, integrativ yangi rejalar shakllanishini, ularning

evristik mohiyatini esa epistemologiyada polimorfik, plyuralistik metodologiya, noan'anaviy va kreativ yondashuvlar orqali ochish mumkinligini ta'kidlaydi [16.15]. Haqiqatan ham, projektiv tafakkur innovatsion loyihalar va yangi rejalarini yaratishga xizmat qiladi.

Fiziolog tadqiqotchi F.Xoliqova "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fiziologiya fanini o'qitishda "work based learning" konsepsiyasini qo'llash metodikasini takomillashtirish" (2025) PhD avtoreferatida fiziologiya fanini "work based learning" konsepsiyasidan foydalanib o'qitish metodikasini rivojlantirish modelini ko'rib chiqdi. Uning fikricha, tibbiyot muassasalarida fiziologiya fanini o'qitishda "work based learning"ni amalga oshirishda ta'limning ko'rgazmali materiallaridan foydalanish va elektron o'quv-metodik majmuasida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil qilish alohida ahamiyatga ega [17.22].

Xulosa. Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik tadqiqotlar doirasida bilish metodlariga berilayotgan e'tibor fan taraqqiyotida ilmiy tafakkur o'rnining qay darajada ekanligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tadqiqotlar epistemologiyaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish hamda uni zamonaviy metodologik yondashuvlar bilan shakllantirishga asoslangan. Tadqiqot jarayonida bilishning klassik va zamonaviy metodlari, jumladan, analitik, interfaol, sinergetik, mantiqiy va projektiv yondashuvlar tahlil qilindi. Bu metodlar orqali bilimning shakllanishi, inson va borliq o'rtasidagi gnoseologik aloqalar, bilish subyekti va obykti o'rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur o'rganildi. Bugungi kunda gnoseologik tadqiqotlar keng qamrovga ega bo'lib, bilish metodlari esa zamonaviy tafakkur va ilm-fan taraqqiyotida muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa falsafiy tafakkurning yangilanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, 2023-yil 20-dekabr. <https://yuz.uz>
2. Shermuhammedova N. A. Gnoseologiya - bilish nazariyasi. - Toshkent, 2011.
3. Shermuhammedova N. A. Gnoseologiya - bilish nazariyasi. - Toshkent, 2011.
4. Nazarov Q. Bilish falsafasi. -T.: Universitet, 2005.
5. Shermuhammedova N. A. Gnoseologiya - bilish nazariyasi. - Toshkent, 2011.
6. Abdullayeva X. Ilmiy bilish imkoniyatlarining falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
7. Nurmatova U. Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlar. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023.

8. Tajibayev M. Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.
9. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017.
10. Kuchimova F. Ta'lim tizimida yoshlarda proyektiv tafakkur tarzini shakllantirishning onto-gnoseologik masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024.
11. Ismoilov D. Ilmiy va o'quv bilish metodlari asosida fizika o'qitishni takomillashtirish. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2021.
12. Abdullayeva X. Ilmiy bilish imkoniyatlarining falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
13. Nurmatova U. Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlar. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2023.
14. Tajibayev M. Sinergetik dunyoqarash paradigmasi taraqqiyotining falsafiy-epistemologik xususiyatlari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.
15. Ismoilov D. Ilmiy va o'quv bilish metodlari asosida fizika o'qitishni takomillashtirish. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2021.
16. Kuchimova F. Ta'lim tizimida yoshlarda proyektiv tafakkur tarzini shakllantirishning onto-gnoseologik masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024.
17. Xoliqova F. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fiziologiya fanini o'qitishda "work based learning" konsepsiyasini qo'llash metodikasini takomillashtirish. – Samarqand, 2025.